



# FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

*Iste'dodlarni kashfetamiz!*

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI HUZURIDAGI  
FAN OLIMPIADALARI MARKAZI

**2025-2026-O'QUV YILIDA UMUMTA'LIM FANLARI BO'YICHA  
ASOSIY OLIMPIADANING IKKINCHI TUMAN (SHAHAR) BOSQICHI**

**TARIX (9-sinf)**

FANIDAN

**TEST TOPSHIRIQLARI KITOBI**

*Ishtirokchining familiyasi, ismi va otasining ismi*

*Imzo*

Ushbu test topshiriqlari kitobi 30 ta (1–30) yopiq turdagi test topshiriqlaridan iborat.  
Har bir topshiriq uchun ajratilgan ball savol kitobida ko'rsatilgan.  
Topshiriqlar yopiq turdagi bo'lib, ularda A, B, C va D javob variantlari berilgan.  
Ishtirokchi har bir topshiriq uchun faqat bitta to'g'ri javobni tanlashi va javoblar varaqasida mos keluvchi doirachani to'liq bo'yashi kerak.

*Ajratilgan vaqt: 60 daqiqa*  
*Savollar soni: 30 ta*  
*Maksimal ball: 50 ball*

Ushbu savollar kitobi 4 sahifadan iborat

Fan olimpiadalari markazi  
rasmiy telegram sahifasi.  
@Fan\_olimpiadalari\_M



Olimpiada topshiriqlari  
yechimlari ushbu telegram  
kanalda e'lon qilib boriladi.

© Fan olimpiadalari markazi, 2025

1. [0,9 ball] Qadimgi odamlarning u yoki bu buyumlar omad keltirishiga yoxud balo-qazoni daf qilishiga ishonishi fanda nima deb ataladi?

- A) Totemizm                      B) Animizm  
C) Shomonizm                    D) Fetishizm

2. [0,9 ball] Yettisuv va Qoshg'ar hududlarida qarluq, chigil, yag'mo kabi turkiy qabilalar qachon o'zlarining kuchli davlatlarini tuzadilar?

- A) IX asrning oxirida  
B) X asrning birinchi choragida  
C) IX asrning birinchi yarmida  
D) X asrning ikkinchi yarmida

3. [0,9 ball] Quyidagi manzilgohlardan qaysi biri so'nggi paleolit davriga oid emas?

- A) Ko'lbuloq                      B) Obishir  
C) Altamir                        D) Lasko

4. [0,9 ball] Sopollitepa nechta mavzedan iborat bo'lgan?

- A) beshta                         B) oltita  
C) ikkita                         D) sakkizta

5. [0,9 ball] Xalifa Mu'tazid kinga Xuroson bilan Movarounnahr ustidan hukm yuritish huquqi berilgani haqida farmon chiqaradi?

- A) Tohir ibn Husayn  
B) Yoqub ibn Lays  
C) Amr ibn Lays  
D) Nuh ibn Asad

6. [0,9 ball] IX asrda Italiyada paydo bo'lgan Salerno maktabi qaysi soha vakillarini tayyorlaydigan birinchi maktab edi?

- A) huquqshunoslarni  
B) ruhoniylarni  
C) shifokorlarni  
D) munajjimlarni

7. [0,9 ball] Qadimgi Baqtriya uy-qo'rg'oni qaysi viloyat hududidan topilgan?

- A) Qashqadaryo                B) Xorazm  
C) Samarqand                 D) Surxondaryo

8. [0,9 ball] XIII asrda qaysi davlatda cho'pon bola butun mamlakat bo'ylab yurib, bolalarni salib yurishlariga targ'ib qilgan?

- A) Angliya                        B) Germaniya  
C) Fransiya                      D) Italiya

9. [0,9 ball] Shayboniylar davrida "oshlig" solig'i nima maqsadda undirilgan?

- A) Bog' va polizlarni sug'orish uchun  
B) Askarlarni oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun  
C) Xon saroyi va boshqaruv tuzilmasi saqlab qolish uchun  
D) Sug'orish tarmoqlarini barpo etish uchun

10. [0,9 ball] Shayboniylar hukmdorlaridan kimga tegishli "Oltin dubulg'a" va "yuzlab ko'zlari ochilib turgan sovut" o'sha davr temirchi-ustalarning yuksak mahoratidan darak beradi?

- A) Muhammad Shayboniyxon  
B) Ubaydullaxon  
C) Ko'chkinchixon  
D) Abdullaxon II

11. [1,5 ball] Shayboniylar davrida iqtisodiy munosabatlarda muhim o'rin tutgan hunarmandchilik keng rivojlangan. Buning tasdig'i sifatida Samarqandda tuzilgan qozilik hujjatlarida nechta hunar turi mavjudligi aytilgan?

- A) 30 ga yaqin                    B) 45 ga yaqin  
C) 60 dan ortiq                 D) 80 dan ortiq

12. [1,5 ball] Xalq orasida Iskandar ko'prigi nomi bilan mashhur bo'lgan G'ishtko'priq qaysi viloyatda joylashgan?

- A) Surxondaryo                B) Navoiy  
C) Samarqand                 D) Buxoro

13. [1,5 ball] To'xtamishxon Misr sultoni bilan Amir Temurga qarshi birlashib harakat qilishga kelishib olganidan so'ng, qanday ittifoq yuzaga keladi?

- A) Misr-Iroq-Oltin O'rda ittifoqi  
B) Misr-Usmoniy-Oltin O'rda ittifoqi  
C) Mo'g'uliston-Misr-Kavkaz ittifoqi  
D) Misr-Suriya-Oltin O'rda ittifoqi

14. [1,5 ball] Kim tomonidan universal bug' mashinasi yaratilgan?

- A) Modslı                        B) Jeyms Uatt  
C) Ned Ludd                     D) Jeyms Xeys

15. [1,5 ball] "Bitta lola piyoziga odamlar o'z kvartirasini yoki restoranini berib yuborishgan. Oxir-oqibat tarixda "Lola talvasasi" nomi bilan

tanilgan bu mamlakat iqtisodiyoti inqirozga uchraydi". Ushbu ma'lumotlar qaysi davlat tarixiga tegishli?

- A) Germaniya                      B) Angliya  
C) Italiya                            D) Niderlandiya

**16. [1,5 ball]** Angliyada Oliver Kromvel protektorat boshqaruv davrini aniqlang.

- A) 1642-1648-yillarda  
B) 1653-1658-yillarda  
C) 1558-1603-yillarda  
D) 1660-1688-yillarda

**17. [1,5 ball]** Qaysi tarixiy shaxs - ijro hokimiyatini qonun chiqaruvchi hokimiyatdan ajratish haqidagi ta'limotni ishlab chiqqan?

- A) Ned Ludd                        B) Tomas Mor  
C) Ignatij Layola                D) Jon Lokk

**18. [1,5 ball]** IX asrga tegishli arab dengizchilariga oid hujjatda: "Xitoy ortidagi dengizning narigi tarafidagi tog'li yerlarda oltinga boy mamlakat bor", deb aytilgan. Arab dengizchilari tomonidan ma'lumot berilgan mamlakatda konfutsiylik dini qachon vujudga kelgan?

- A) III asr                            B) VIII asr  
C) VI asr                            D) IX asr

**19. [1,5 ball]** Tarixiy bog'liqlik xato berilgan javobni aniqlang.

- A) Oliy inka – flatoani – eng muhim ekini makkajo'xori  
B) "Buyuk kishi" – Chechen Itsa – rasadxona  
C) Atstek – Tenochitlan – ko'pxudolik dini  
D) Angliya - donolar kengashi – sherif

**20. [1,5 ball]** O'rta asrlarda xitoyliklar qaysi bayramni nishonlash jarayonida tunda barcha olovlar o'chirilib, sovugan taomlar iste'mol qilishgan va yangidan olov yondirishgan?

- A) Hosil bayrami  
B) Taomlar festivali  
C) Choy ichish marosimi  
D) Fonuslar bayrami

**21. [2,6 ball]** Ossuriya va Baqtriya o'rtasidagi daxshatli jang haqidagi to'g'ri berilgan ma'lumotni toping.

- A) Ktesiy o'ziga qarashli elatlardan ko'p sonli jangchilarni to'pladi.  
B) Daxshatli jang boshlanganda ossuriyaliklar baqtriyaliklarni chekinishga majbur qildi.

C) Podsho Oksiart yuz ming nafar askari jangda qirilib ketdi.

D) Baqtriyaliklar dushman qo'shinini ta'qib etib, tog' etagigacha quvib boradi va yuz ming nafar dushman qo'shinini qirib tashladi.

**22. [2,6 ball]** "Badavlat kishilar hovli-manzillarda yashagan. Uy jihozlaridan suyanchiqli yumshoq kursilar, karavotlar bo'lgan. Polga bo'yra, gilamlar yoki hayvon terilari to'shalgan. Kambag'allar qamish kulbalarda hayot kechirganlar". Ushbu ma'lumotlar qaysi davlatga tegishli?

- A) Xitoy                              B) Koreya  
C) Hindiston                        D) Yaponiya

**23. [2,6 ball]** Milodiy I mingyillikda shahar-davlatlar vujudga kelgan va ularning har birini "Buyuk kishi" – hukmdor boshqargan davlat tarixiga oid ma'lumotni toping.

- A) Xo'jaligining asosi sug'orma dehqonchilik bo'lib, eng muhim ekin makkajo'xoridan mo'l hosil olishgan  
B) Mamlakatda rasman qulchilik bo'lmasada, jamoa a'zolari shafqatsiz ishlatilgan va deyarli huquqsiz bo'lgan  
C) Maxsus tepaliklar yasab, baland poydevorlar ustida o'zlarining zinapoyali ehromlarini, saroy va ibodatxonalarini barpo etganlar  
D) Har yili madhiya, qissalar yozadigan shoir-qo'shiqchilar musobaqalari o'tkazilib, g'oliblar mukofotlangan

**24. [2,6 ball]** Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi yurishi haqida ma'lumotlar yozilgan 11 qatorli bitiktosh hozir qaysi muzeyda saqlanmoqda?

- A) Temuriylar tarixi davlat muzeyi  
B) Ermitaj muzeyi  
C) Britaniya muzeyi  
D) Luvr muzeyi

**25. [2,6 ball]** "Tikuvchilar matolarini ko'z-ko'z qilishardi. Chekkaroqda ziroatkorlar bilan chorvadorlar o'zlari yetishtirgan bug'doy, arpa, hayvon terilaridan va charmdan yasalgan buyumlarni sotardilar". Ushbu ma'lumotlar qaysi manzilgoh tarixi bilan bog'liq?

- A) Sopollitepa                      B) Teshiktosh  
C) Machay                            D) Qo'shilish

**26. [2,6 ball]** Tarixiy atamalarni moslashtiring.  
1. Vazir; 2. Madrasa; 3. Ulamo; 4. Hojib; 5. Xonaqoh

a. din olimlari; b. musofirxona; c. harbiy unvon;  
d. devonxona boshlig'i; e. musulmonlarning o'rta va oliy o'quv yurti

A) 1-d; 2-e; 3-a; 4-c; 5-b

B) 1-b; 2-c; 3-e; 4-a; 5-b

C) 1-d; 2-e; 3-b; 4-c; 5-b

D) 1-d; 2-e; 3-c; 4-b; 5-a

**27. [2,6 ball]** Abulhasan Farruxiy, Abdulmajid Sanoiy, Unsuriy, Utbiy kabi tarixiy shaxslar qaysi sulola saroyida faoliyat ko'rsatishgan?

A) Saljuqiylar                      B) G'aznaviylar

C) Somoniylar                      D) Tohiriylar

**28. [2,6 ball]** Temir asri boshlarida O'rta Osiyoda aholi qanday guruhlarga bo'lingan?

A) kohinlar, jangchilar, chorvadorlar, dehqonlar va hunarmandlar

B) savdogarlar, jangchilar, dehqonlar, chorvadorlar va hunarmandlar

C) zodagonlar, hunarmandlar, dehqonlar, chorvadorlar va jangchilar

D) oqsoqollar, kohinlar, dehqonlar, hunarmandlar va chorvadorlar

**29. [2,6 ball]** 1005-yil Qoraxoniylar qaysi hududlarni o'z tasarruflariga kiritadilar?

A) Buxoro, Samarqand va Amudaryogacha bo'lgan hududlarni

B) Balxash ko'lidan – Cherchen daryosigacha bo'lgan hududlarni

C) Yettisuv va Sharqiy Turkiston hududlarini

D) Isfijob, O'zgand, Murg'ob daryosi quyi oqimlarigacha hududlarni

**30. [2,6 ball]** Arab xalifaligi davriga oid ilm dargohlarini tashkil topgan hududi bilan birga moslashtiring.

1. Tunis; 2. Marokash; 3. Bag'dod; 4. Qohira;

a. Zaytuna; b. Bayt ul-hikma; c. Qaroviyun; d. al-Azhar

A) 1-a; 2-c; 3-d; 4-b

B) 1-c; 2-a; 3-b; 4-d

C) 1-a; 2-c; 3-b; 4-d

D) 1-d; 2-b; 3-a; 4-c



## 9-sinf Tarix kalitlari

<b>№</b>	<b>Javoblar</b>	<b>№</b>	<b>Javoblar</b>	<b>№</b>	<b>Javoblar</b>
1	D	11	C	21	D
2	D	12	A	22	C
3	B	13	B	23	C
4	D	14	B	24	B
5	C	15	D	25	A
6	C	16	B	26	A
7	D	17	D	27	B
8	C	18	C	28	A
9	B	19	A	29	A
10	D	20	D	30	C